

## **O'zbek va Ingliz tillarida oksimoron (oxymoron) stilistik vositasining struktural-semantik qiyosiy tahlili.**

*Kamol Normurodov Ikromovich. JDPI*

Stilistik vositalardan kundalik so'zlashuv jarayonida va badiiy adabiyotda keng foydalanib kelinadi ularning ba'zilari o'xshatishga asoslangan bo'lsa ba'zilari esa ma'no kuchaytirish matnning bo'yoqdorligini oshirish uchun xizmat qiladi. Shulardan biri oksimoron (oxymoron) stilistik vositasidir.

Oksimoron (oxymoron yunoncha *oksús* "sharp, keen, pointed" o'tkir, keskin va *mōros* "dull, stupid, foolish" be'mani ) so'zlarning bir biriga nomantiqiy bog'lanishidan hosil bo'lgan stilistik vosita bo'lib, ikki tilda ham og'zaki va yozma badiiy nutqda juda keng qo'llaniladi. Biz ushbu vositani aksariyat xollarda strukturaviy-sintaktik jihatdan sifat va ot so'z turkumlarining o'zaro aniqlovchi aniqlanmish modeli asosida birikishini ko'rishimiz mumkin.

-yoqimli og'riq    sifat+ot

-green desert    adjective+noun

Bundan tashqari quyidagi sintaktik birikish usullari ham mavjud;

Sifat+sifat. Bunday holda ikki ma'nosi bir biriga mos kemaydigan sifatning sintaktik bog'lanishi natijasida paydo bo'ladigan stilistik vositani ko'rishimiz mumkin.

-uzoq yaqin o'tmish,

-sad happy marriage

Fe'l+artikl(yoki predlog)+ot. Bu birikishni biz ingliz tilida uchratishimiz mumkin;

-ruined by civilization,

Fe'l+ravish. Oksimoron fe'l va ravish birikishidan hosil bo'lishi mumkin;

-jimgina yig'lamoq

-to cry silently

Ingliz tiliga hos bo'lgan usullaridan yana biri bi ot+predlog+ot birikishidir;

-victory in defeat

Erkin strukturaviy-sintakterkin birikish orqali ham birikishi mumkin;  
...endigina ikki, uch marta yuvilgan yangigina chopon...( A Qahhor)

Kundalik so'zlashuv turmush tarzida biz oksimoronni tez-tez ucratib turamaiz masalan; yomon zo'r, daxshat chiroyli, aqlli ahmoq, haqiqiy yolg'on va shu kabilar. Bundan tashqari badiiy adabiyotda ham ushbu vositadan keng foydalaniladi masalan;

Ingliz tilida ham ushbu vositaning qamrovi juda keng bo'lib, birinchi navbatda biz mashhur Ingliz yozuvchisi Sheksporning Romeo va Juletta tragediyasidagi ...parting is such sweet sorrow... (vidolashuv shirin iztirob) iborasini ko'rishimiz mumkin. O'zbek tili singari Ingliz tilida ham kundalik hayotda og'zaki nutqda oksimoronni ntez-tez qo'llanilishini ko'rishimiz mumkin masalan; awfully beautiful, same difference, silent scream, genuine fake, living history, wise fool va shu kabilar.

E'tiborli jihati shundan iboratki ushbu so'zlarning nomantiquiy bog'lanishidan hosil bo'lgan vosita ikki tilda ham ma'noni kuchaytirish uchun xizmat qilishini ko'rishimiz mumkin. Yuqoridagi misollar badiiy asarlarda yozuvchi ushbu stilistik vositani o'quvchiga matnning hissiy ta'sirchanligi, bo'yoqdorligini oshirish uchun qo'llaganini ko'rishimiz mumkin.

Masalan quyidagi she'riy parchalarda yozuvchi tomonidan qo'llanilgan so'zlar o'rtasidagi nomantiquiy bog'lanishni ko'rishimiz mumkin;

*Sekin shoshish, shoshgan astalik,*

Nozik kelish, nafis ketish, or,

*Xasta sog'liq, sog'lom hastalik,*

Men va sendan boshqa kimda bor?(Salim Ashur)

*Go'zal tobut-uning tobuti,*

Chayqaladi g'am ohangida.

Xasta suyak sabrdek sobit,

Suyaklari she'rning rangida. (Shavkat Rahmon)

Mashhur ingliz yozuvchisi Jon Miltonning quyidagi sheri misrasida ham oksimoron qo'llanilganini ko'rishimiz mumkin.

"Then had I not been thus exiled from light,

As in the land of darkness, yet in light,

To live a life half dead, a *living death*,

And buried; but, O yet more miserable! "

Sheksperning Hamlet tragediyasida ushbu stilistik vositaning o'rni salmoqli shulardan biri Hamlet Poloniyni o'ldirganda aytgan ushbu misrasidir;

" *I must be cruel only to be kind* "

Xulosa o'rnida ushbu stilistik vositadan qardosh bo'lmagan ikki tilda ham keng foydalanilishini kuzatishimiz mumkin. Bundan tashqari ushbu stilistik vositani paradoks va antitezis kabi mazmunan yaqin vositalar bilan adashtirmaslik lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. Qilichov E. —O'zbek tilining amaliy stilistikasi|| O'qituvchi 1992

2. Musaev Q. —English stylistics||. Tashkent 2003

3. Baker Sh. —The complete stylist|| New York 1992.

4. [www.homeenglish.ru](http://www.homeenglish.ru)